



SAMARBONU IJODIGA OID DASTLABKI IZLANISHLAR

Toshquvatova Mashhura Aktam qizi

SamDU talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6408023>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-mart 2022

Ma'qullandi: 10-mart 2022

Chop etildi: 14-mart 2022

KALIT SO'ZLAR

devon, shajara, she'riyat, iste'dod

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada 19-asrda yashab ijod qilgan shoira Samar bonu ijodini o'rganishga oid dastlabki qadamni tashlagan olim To'xtasin Jalolovning say-harakatlari va shoira she'rlarining asosiy mavzulari ko'lamiga qaratiladi. Shuningdek, Olimning "O'zbek shoiralari" nomli kitobida asosiy o'rin egallagan shoirlar haqida qisqacha ma'lumotlar ham keltirilgan.

Shoira Samarbonu ijodiga oid dastlabki izlanishni taniqli olim To'xtasin Jalolov boshlab bergan. Olim "O'zbek shoiralari" nomli kitobini yozayotgan paytda do'sti shoir Abdulahad Azizovdan (shoir Anisiy) Samar Bonu haqida hikoya qilib beradi. Shoir esa bu ma'lumotlarni do'sti Abdulhamid Abdurazzoqovdan eshitadi. Olim To'xtasin Jalolov shu vosita orqali shoira haqidagi ma'lumotlarni izlashni boshlaydi. Dastlab olim Abdulhamid Abdurazzoqov nomiga maktub yo'llaydi va shoiraning devonini izlab topish uchun yordam so'raydi. Lekin bu izlanishlar natijasida Qambarniso nomli shoiranigina ijodini topishadi xolos. Shoira Qambarniso esa Muqimiya uzoq qarindoshligi ham aniqlanadi. Olim Samar Bonuni shoir Huvaydo eshoning nevarasi bo'lganligini, otasi shoir Sirojij, akasi shoir Soqib, ukasi Amonxon Maqsum ekanligi haqidagi ma'lumotlar orqali ijodiy merosini izlashga chuqurroq kirishadi. Bundan tashqari O'shga borib Samar Bonuni bilgan keksalar bilan suhbat qilish ham shoirning

shaxsiyati haqida qimmatli ma'lumotlarni bilishga imkon beradi. Olim sayyohati davomida shoiraning ijodi shu kungacha ilm-fanga ma'lum bo'lmaganini hisobga olgan holda she'rlarini to'plab devon holiga keltirishga harakat qiladi. O'shga safarida dastlab Samar Bonuning ukasining o'g'li Rukniddinga murojaat qilishadi lekin devonni topa olishmaydi. Keyin esa shoir Soqibning o'g'li Raziddin Maqsumni izlab topishadi. U kishi o'sha paytda ellik yoshlar chamasi kolxoz traktor parkida seleksar bo'lib ishlardi. U devonni Dushanbeda va Surxondaryoda bo'lish ehtimolini rad etadi. Chunki Raziddin Maqsumning opasi Bahriniso bundan o'n yillar avval Chimyonga olib ketganini aytadi. Opasi Bahriniso esa olti yil oldin vafot etganini va u kishining birgina Munisxon ismli qizi qolgan bo'lib, Munisxon ham "Munis" taxallusi bilan she'r yozishini bilib oladi. To'xtasin Jalolov Raziddindan Muqimiddin nomiga xat yozishini iltimos qiladi. Olim shundan keyin Chimyonga borib, Muqimiddin Maqsumni



(Munisxonning turmush o'rtog'i) izlab topish uchun yo'lga tushadi. Olim shoira devoni "alif"dan boshlanib "yo" gacha tartib bilan terilgan she'rlardan iboratligini, ba'zi she'rlari shoirlar tomonidan xalqonaligi va o'ynoqiligi sababli ham ko'chirib olinganligi haqidagi ma'lumotlarni eshitadi. Lekin bu daftarni qo'lga kiritmay orqaga qaytishga majbur bo'ladi. Olim shoira hayotiga oid ayrim ma'lumotlarni: dastlab bir domlaga turmushga chiqib birozdan so'ng ajrashganini, keyinchalik Husayin aka degan bir dehqonga turmushga chiqib qirq yil birga yashaganligi lekin farzandi bo'lmaganligi haqidagi ma'lumotni bilib oladi. Olimning O'shlik Raziddin Salohiddinov ismli do'stidan 1962-yil 8-fevral sanasida maktub oladi. Unda shoira devonini topganligi lekin uning egasi bu devonni tashlab ketishga kunmayotganligi bois ba'zi she'rlarini ko'chirib do'stiga yuborayotgani va bu devonni Samar bonu o'z qo'li bilan yozilgani haqida ma'lumot beradi. Do'sti maktubida xatni olishi bilan o'shga yetib kelishini ham aytib o'tgan bo'ladi. Raziddin Salohiddinov yuborgan maktubida Bonu she'rlari g'oyat darajada eskirgan bir devonning yetti varag'idan yirtib olingan parcha-parcha qog'ozlardan iboratdir. Binobarin, bu parchalardagi she'rlarni boshidan oxirigacha o'qish juda mushkul ish edi, chunki she'rlarning yo boshi, yo oxiri yuq, ba'zi parchalarda misralarning yarmigina qolgan.

Olim Bonu devonining shu yirtiq, majruh parchalariga qarab, uning turli g'azallaridan quyidagi misralarni o'qishga muvaffaq bo'ladi:

Ishq ishini tutgan elning jumlai kori muboh,

Ohi sardu, ro'yi zardu nolayi zori muboh.

Vasli muhtojinda oshiq doimo zoru haqir,

Shohi husnin oldida bo'lgusi ag'yori muboh.

Arsh toqida butuklik bo'lsa oshiq giryasi,

Yoriga oshiqlarini bo'lsa sarshori muboh.

Bir o'lib, ming yo'l tirilgay ishtiyoqi yordin,

Dardi bedarmon o'lub Bonuyi bemori muboh.

Bonu qirq yildan ziyod bir davr ichida badiiy ijod bilan mashg'ul bo'lgan. Binobarin, bu parchaga qarab Bonu devonining qimmatini aniqlash amri mahol. Mirzo Bedil: "Men qatraga qarab-dengizni ko'raman", degan ekan. Demak, har bir ziyrak o'quvchi bu parchalarga Zahn solib, Bonu baquvvat shoira, degan fikrga kelishi mumkin. Zotan "Muboh" radifli she'ri shoira iste'dodini ko'rsatuvchi yaxshi dalildir. Olimning qilgan say harakatlari natijasida shoira she'rlari ilm fanga ma'lum bo'ldi. Chunki, shu kungacha ham ko'plab iste'dodli shoir va shoirlarning ijod namunalari fanga ma'lum bo'lmasdan qolmoqdadir. Buni oddiy Samar Bonudek O'shlik shoira misolida ham ko'rishimiz mumkin. Olim o'z niyatiga yetib shoira devonini qo'lga kiritadi. Samar Bonu sharofati tufayli Qambarniso kabi zabardast



shoiraning mushoirasini topib “ O`zbek shoiralari” da nashr qiladi. Yana bu Bonu sharofati bilan (uning devonidan) shoira Mahdibibining “Kakkujon” degan lirik dostonini topib “ O`zbekiston madaniyati” gazetasida chiqartiradi. Bundan tashqari olim bu izlanishlar faqatgina o`zining say-harakati mahsuli bo`lmay bir qancha do`stlarini ham eslab o`tadi. Olim shoiraning devonidagi barcha she`rlar bilan tanishar ekan shoiraning naqadar yuksak bilm sohibasi ekanligiga guvoh bo`ladi. Buni quyidagi she`r misolida ko`rishimiz mumkin:

Bonu aytur bu olamda ki, g`amsiz yurmadim hargiz,

Bu dunyo davrini shodmonu xandon surmadim hargiz.

Izoh: Bonu aytar men hech g`amsiz yurmadim va bu dunyoning shodmonligi yu xandonligini ham surmadim.

Jahonda yurdimu turdim necha chektim jafolarni,

Jafosin ko`rdum, ey do`stlar, vafosin ko`rmadim hargiz.

Izoh: Jahonda yurdim va turdim ko`p jafo chekdimu, lekin do`stlar vafosini hech ko`rmadim.

Ayo do`stlar, ki men yolg`uz, g`aribi benavo qulmen,

Topay ahl-ayol, atfol deyub qayg`urmadim hargiz.

Izoh: Ey do`stlar men yolg`uz, g`arib navosiz qulman,lekin hech bir do`st izlayman deb qayg`urmadim.

Ki sakkiz yil bo`lur otam shikori Yorkent aylab,

Muborak yuzlarin ko`rub ko`zum to`ydurmadim hargiz.

Izoh: 18 yil bo`ldiki otam Yorkentga sayohat qildi,muborak yuzlarini ko`rishga ko`zim hech to`ymadim.

Jahonda har balo bo`lsa baham bo`ldi g`arib boshim,

Sitam birla alamlarni surub yondirmadim hargiz.

Izoh: Jahonda qancha balo bo`lsa shular sabab boshim g`arib bo`ldi, bu

sitam va alamlarni boshimdan surub yondira olmadim.

Shoira ijodi bilan tanishgan sari uning ijodining asosiy mavzusi o`sha davrda boshiga tushgan g`am anduhlarni qog`ozga tushurganligini ham sezishimiz mumkin. Zero , har bir ijod mahsuli ijodkorning qalb tug`yonlari sababli dunyoga keladi. Shoiraning ijodini o`rganishda olim To`xtasin Jalolovning say harakatlarini hech qachon unutmasligimiz lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To`xtasin Jalolovning “ O`zbek shoiralari”kitobi